

**BOSHLANG‘ICH TA’LIM DARSLARIDA PEDAGOGIK DASTURIY
VOSITALARNING QO’LLANILISHIDAGI AHAMIYATLARI.**

Ganiyeva Nilufar Komil qizi.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogik Fakulteti Boshlang ‘ich ta ’lim
Yo ‘nalishi 4-kurs 3-21-guruh talabasi
E-mail: kamoliddinganiyev15@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali hozirgi kunda maktablarda olib borilayotgan ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo’llay olish, integratsiyalashgan dars jarayonlarini tashkil eta bilih, o’quvchilarni darsga bo’lgan qiziqishlarini oshirishimiz uchun esa ularga turil pedagogik vositalar orqali didaktik o’yinlarni o’z o’rnida qo’llay bila olish mahorati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Pedagogik dasturiy vositalar, pedagogik texnologiyalar, integratsiyalashgan dars, didaktik o’yin.

Hozirgi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarisiz hayotimizni tasavvur etib bo’lmaydi. Axborot asri deya e’tirof etilayotgan bugungi kunimizda axborot kommunikatsiya tizimi izchil rivojlanishda davom etmoqda. Shu boisdan barcha sohalarda va shu o’rinda ta’kidlab o’tish joizki, ta’lim jarayonida ham katta o’zgarishlar yuz berib kelmoqda. Ayni damda biz uchun kerakli bo’lgan ta’lim sohasini olib qaraydigan bo’lsak: maktablarda darslarni integratsiyalashgan holda olib borish, dars jarayoni tashkil etish davomida AKT vositalaridan foydalangan holda, monitor, TV yok kompyuterlarda foydalangan holda o’quvchilar uchun qiziqarli bo’lgan dars jarayonlari tashkil etib kelinmoqda. Shu o’rinda bizlarga pedagogik dasturiy vositalarning o’rni katta ahamiyat kasb etadi. Pedagogik dasturiy vositalar nima degan savol ham tug’ilishi mumkin. Ushbu savolimizga biz quyidagicha javob olishimiz mumkin.

Pedagogik dasturiy vositalar kompyuter texnologiyalari yordamida o’quv jarayonini qisman yoki to’liq avtomatlashtirish uchun mo’ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o’qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o’quv fani bo’yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo’naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot hamda qo’shimcha yordamchi vositalar kiradi.Ushbu pedagogik dasturiy vositalar orqali biz dars jarayonini o’quvchilarga yanada ham tushunarli bo’lishi uchun ularga qo’shimcha ravishda video, ovoz, animatsiya, jadval, test, matn, lug’atlar va boshqa shakldagi vositalarni eshitishlari, ko’rishlari yoki bo’lmasam ishlash yo’li orqali ham mavzularni mustahkamlab borish imkoniyatlari yaratilgan. Biz misol sifatida video darslarni oladigan bo’lsak ushbu jarayonni o’quvchilar uchun afzallik tomonlari va kamchilik tomonlarini ko’rib chiqsak. Video darslarning afzalligi shundan iboratdir bu o’quvchilar uchun ham ota-onalar uchun ham

qulay hisoblanadi. Chunki o'quvchi dars mobaynida mavzuni qisman tushungan bo'lsa endilikda u video darslarni ko'rib to'liqrot tushunish imkonini beradi. Shu bilan birga ota-onalar ham ushbu video darslarni ko'rib farzandlarining vazifalarini bajarish jarayonida ko'makalshiah imkonini ham berib o'tadi. Kamchikil tomoni esa shundan iboratki o'quvchilarining ko'zlarining toliqishiga va ko'rish qobiliyatini yomonlashishiga katta ta'sir ko'ratadi. Buning oldini olish uchun esa biz monitorlar,i TVni, telefonlarni inson ko'zida hech bo'lмагanda 3 mert uzoqroqda tutishimiz kerak bo'ladi. Bundan tashqari o'qituvchilar darsni tashkil etish mobaynida o'zining pedagogik texnologiyasini o'z o'rnida foydalana olishi kerak bo'ladi. „Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda muayyan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonlaridan biridir. Pedagogik texnologiyaning qay usulda qo'llash bu o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'lgan jarayonlardan biri hisoblanadi. Chunki ta'lim jarayonida ham innovatsion o'zgarishlar bo'lmoqda. Bunga namuna sifatida an'anaviy ta'lim tizimidan, noan'anaviy ta'lim tizimida darslar tashkil etilayotganligini aytsak bo'ladi. Yani noan'anaviy ta'lim tizimida biz endilikda dars jarayonlarini boshqa fanlar bilan bog'lagan holda yoki bo'lmasam integratsiyalash yo'li orqali amalga oshirilib kelinmoqda. „Integralatsiya“ so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib tiklash, to'ldirish, butun degan ma'nolarni anglatadi. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etish orqali endilkda o'quvchilar bir fan bilan cheklanibgina qolmasdan endilikda boshqa fanlarni ham hustahkamlab borish imkonini beradi. Misol uchun biz bugun Tabiiy fanlar darsligidan „Jonli va jonsiz hayvonlar“ mavzusini o'tayotgan bo'lsak ushbu mavzuni texnalogiya, rasm, musiqa, matematika va ona tili fanlari orqali integratsiyalab o'tishimiz mumkin.

Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda va didaktik o'ynlarni o'tkazish mobaynida har bir o'qituvchi o'quvchilarining psixofiziologik hususiyatlarini hisobga olishi shart. Chunki o'quvchilarga mavzu tushuntirish jarayonida ularning yosh xususiyatini inobatga olgan holda mavzudan kelib chiqqan holda va o'quvchilarining yoshiga mos bo'lgan metod yoki didaktik o'ynlarni tashkil etish orqali biz o'quvchiga mavzuni yaxshi tushunib olishiga ko'maklashgan bo'lamiz. Bundan tashqari hozirgi kunda ijtimoiy jamiyat raqamlashtirish tizimiga o'tayotgan bir vaqtida, ta'lim sohasi ham unga moslashishi, uning afzalliklaridan foydalanishi lozimdir.

Xulosa Biz pedagogik dasturiy vositalarni boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining darslari mobaynida o'z o'rnida qo'llay olishni, innovatsiyon yangiliklarni amalga oshira olishni bilsakgina ta'lim tizimida o'zgarishlar bo'ladi. Bundan tashqari malakali o'qituvchilarini tayyorlash orqali, ularga zamon talabiga mos bo'lgan holda bilimlarni o'z o'rnida berib borishimiz orqali ham ta'lim tizimida pedagogik dasturiy vositalar foydalana olishga bo'lgan talablar yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ne'matov O., Umurova M. Boshlang'ich ta'lif jarayonini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati // O'zbekistonda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 2. – Yo'q. 4. – 77-81-betlar.
1. M.Kadirov "Axborot texnologiyalari" Toshkent-2018.
2. O.Ne'matov "TA'LIMDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" "Science Shine International scientific journal"-2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi to'g'risidagi qarori.